



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




№1(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 138 sahifa,
20-yanvar, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarini maktab ta'limiga tayyorligini aniqlash	16
<i>Akramova Dildora Ergashboy qizi</i>	
Bola tarbiyasida o'yinning ahamiyati	21
<i>Choriyeva Durdona Anvarovna, O'ktamova Nasiba Ravshan qizi</i>	
O'quvchilarning loyiha-tadqiqot faoliyatini tashkil etishning ilmiy asoslari	25
<i>Sobirova Nilufar Azimboy qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik jarayonni tashkil etish	29
<i>Choriyeva Durdona Anvarovna, Ko'zibayeva Nasiba O'tkir qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda sensor tarbiyani rivojlantirish texnologiyalari	32
<i>Choriyeva Durdona Anvarovna, Allaberdiyeva Mardona O'tkirbek qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni jismoniy tarbiyalash mazmuni va vazifalari.....	37
<i>Choriyeva Durdona Anvarovna, Mirsharfova Shahinabegim Saidabbos qizi</i>	
Gandbolchi sportchilarni jismoniy tayyorgarligida harakatli o'yinlarning tarbiyaviy rivojlantiruvchi vazifalari	41
<i>Ibodullayeva Munira Atabek qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda dars samaradorligini oshirishda noan'anaviy usullardan foydalanish samaradorligi.....	44
<i>Yusufaliyeva Gulnora Abduraxmonovna</i>	
Modern Requirements for a Teacher's Pedagogical Skills in the Context of Digital Transformation in Education.....	49
<i>Abira Bakhramova</i>	
Ta'lim muassasalarida o'smir yoshlarning ijtimoiylashuv jarayonini samarali tashkil etishga yordam beruvchi pedagogik omillar va shart-sharoitlar	54
<i>Artikova Gulnoza Xasanovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida iqtisodiy tarbiya berishning nazariy-pedagogik asoslari	57
<i>Mamadaliyeva Nilufar Bahodirovna</i>	
Kognitiv lingvistika va konseptologiya masalalari	60
<i>Meyliqulova Manzura Abdullayevna</i>	
Developing Law Students' Writing Competence Through the IRAC Method in Legal English Classes: A Comprehensive Study at TSUL.....	63
<i>Noila Mustafoeva</i>	
Tarixiy obidalarining restavratsiya jarayonlarining o'rganilish tarixi	67
<i>Ochilov Davron Bahodir o'g'li</i>	
Oliy ta'limda baholash jarayonini avtomatlashtirishda sun'iy intellekt texnologiyalarining qo'llanishi.....	72
<i>Ovxunov Iqboljon Abdunabiyevich, Mamadaliyeva Kamolaxon Xayrullo qizi</i>	
Tabiiy yorug'lik va barqaror energiya manbalarini integratsiyalashgan mini home loyihasi.....	76
<i>Djuraboyev Maqsudbek Karimbek o'g'li, Qodirjonov Oyatillo Abdulboqi o'g'li</i>	
Talabalarning tarixiy tafakkurini rivojlantirishda madaniy meros vositalarining pedagogik ahamiyati.....	80
<i>Rajabova Matluba Toshkentboy qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari.....	83
<i>Saidova Nigora Olimovna, Jo'rayeva Nilufar Rustamjon qizi</i>	
Raqamli kommunikatsiyalarni o'smirlar shaxsiyatining rivojlanishiga ta'siri	86
<i>Shomurotova Nigoraxon Nabijonovna</i>	
Talabalarning chizma geometriya fanini mustaqil bilish faoliyatiga oid kompetensiyalarini "Visio" dasturi vositasida rivojlantirish metodikasi	90
<i>Tashimov Nurlan Erpolatovich</i>	



Shaxslararo munosabatlar – ijtimoiy pedagogik muammo sifatida.....	94
Uralova Muxabbat Sanjar qizi	
O'zbek tili darslarida raqamli ta'lim vositalaridan foydalanish tajribasi	98
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna	
Психологическая готовность разведенных людей к вступлению в новый брак и приоритеты при выборе партнера.....	101
Саидвалиева Шодия Рихсихужа кизи	
Воспитание любви к прекрасному у дошкольников в развивающей предметно-пространственной среде: теоретико-методический аспект.....	107
Терехова Ольга Евгеньевна, Темирова Барно Кёмхоновна	
Методика формирования наблюдательности у детей 6–7 лет в процессе целенаправленных прогулок-наблюдений.....	111
Терехова Ольга Евгеньевна, Шокиржоновна Мохира Илхомжон кизи	
Bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlash texnologiyalari	115
Artikbayeva Aziza Abror qizi	
Zamonaviy darslarda guruhlarda ishlash metodikasi	118
Berdiyeva Lobar Norqobulovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faol rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishda STEAM ta'lim texnologiyasidan foydalanish.....	120
Esanova Maysara Umirovna	
Logopediyada axborot texnologiyalarini qo'llash metodlari	124
Feruza Yusupova Akildjanovna	
Axborot texnologiyalarining ta'lim jarayonidagi o'rni va rivojlanish bosqichlari.....	130
Qodirov Farrux Ergash o'g'li, Allanazarova Anora Muxobir qizi	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ilmiy-ijodiy kompetentsiyalarini rivojlantirish	134
Umarov Xusniddin	

KOGNITIV LINGVISTIKA VA KONSEPTOLOGIYA MASALALARI

Meyliqulova Manzura Abdullayevna

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti katta o'qituvchisi,
p.f.b.f.d. (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tilida kognitiv tilshunoslik va konseptologiya masalalari batafsil yoritilgan. Tadqiqotda kognitiv yondashuvning nazariy asoslari, konsept, ya'ni tushuncha va tasavvur tushunchalarining mohiyati hamda ularning lingvokognitiv talqini, o'zbek xalqining milliy-madaniy tafakkuridagi roli, iboralar va badiiy matnlarda ifodalanishi o'rganilgan.

Kalit so'zlar: kognitiv lingvistika, konsept, konseptologiya, lingvokognitiv tahlil, milliy tafakkur, frazeologiya, badiiy matn.

Abstract: This article discusses in detail the issues of cognitive linguistics and conceptology in the Uzbek language. The study examines the theoretical foundations of the cognitive approach, the essence of the concept, the notion of imagination and its linguocognitive interpretation, as well as its role in the national and cultural thinking of the Uzbek people and its expression in phraseological units and literary texts.

Key words: cognitive linguistics, concept, conceptology, linguocognitive analysis, national thinking, phraseology, literary text.

Аннотация: В данной статье подробно рассматриваются вопросы когнитивной лингвистики и концептологии в узбекском языке. В исследовании анализируются теоретические основы когнитивного подхода, сущность концепта, понятие "воображение" и его лингвокогнитивная интерпретация, а также его роль в национально-культурном мышлении узбекского народа и выражение во фразеологизмах и художественных текстах.

Ключевые слова: когнитивная лингвистика, концепт, концептология, лингвокогнитивный анализ, национальное мышление, фразеология, художественный текст.

KIRISH

Til va tafakkur munosabati lingvistika va psixologiya sohalarida eng dolzarb masalalardan biri bo'lib kelgan. Tilshunoslikda tilning qurilishi va grammatik tizimi asosiy e'tibor markazida bo'lsa, kognitiv lingvistika, ya'ni bilmoq, tasavvur qilish, tushunmoq, tafakkur qilmoq, idrok va sezgi jarayonlarini qamrab olgan holda, tilni inson tafakkuri va madaniy tajribasi bilan uzviy bog'liq holda talqin qiladi. Kognitiv lingvistika – bu til va ong o'rtasidagi munosabatlar muammolarini, dunyoni kontseptuallashtirish, ya'ni tushunchaga aylantirish va turkumlashtirish jarayonida tilning vazifasini, bilish jarayonlarida inson tajribasini umumlashtirish mexanizmlarini, insonning individual kognitiv qobiliyatlari bilan bog'liqligini hamda til va tafakkurning o'zaro ta'siri shakllarini o'rganadigan tilshunoslik yo'nalishidir.

"Kognitiv" atamasi inglizcha cognize so'zidan olingan bo'lib, bilmoq, anglamoq, tushunmoq, fikrlamoq ma'nolarini anglatadi, "cognition" esa bilish va tushunish jarayonlarini ifodalaydi. Kognitiv tushunchasini keng ma'noda quyidagicha talqin qilish mumkin: bilish faoliyati insonning ma'lumotni qabul qilish, qayta ishlash, saqlash va undan foydalanish bilan bog'liq jarayonlar majmuasi bo'lib, ong bilan bevosita uzviy aloqadordir. Ong, tafakkur, xotira va til kabi hodisalarning o'zaro ta'siridan kelib chiqqan holda dunyoni tahlil qilish va qaror qabul qilish tizimi shakllanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Atrof-muhitni sezish, tushunish va undagi vaziyatlarga moslashish bilan bog'liq qobiliyatlar kognitiv jarayonlarning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. XX asr oxirlarida G. Lakoff, R. Langaker, Ch. Fillmor va J. Faukanye kabi olimlar kognitiv lingvistikaning nazariy asoslarini ishlab chiqdilar. Ularning fikriga ko'ra, til inson idrokini ifodalovchi vosita bo'lib, u orqali insonning dunyoqarashi, hissiyoti va madaniy qadriyatlari aks



etadi. O'zbek tilshunosligida kognitiv yondashuv so'nggi yillarda faol o'rganilmoqda. Shu bilan birga, konseptologiya masalalari, ya'ni konseptlarning milliy-madaniy tafakkurdagi roli va lingvokognitiv xususiyatlari hali yetarlicha tizimli ravishda tadqiq etilmagan. Shu sababli mazkur maqola o'zbek tilida konseptologiya (tushunchalarning mohiyati, ularning shakllanishi, tadrijiy rivojlanishi va turli sohalarida qo'llanishini o'rganadigan yo'nalish) masalalarini nazariy va amaliy jihatdan yoritishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotning nazariy-metodologik asosi kognitiv lingvistika, konseptologiya va lingvomadaniyatshunoslik nazariyalariga tayangan. Tadqiqotning ilmiy manbalar bazasini G. Lakoff, R. Langaker, Ch. Fillmor, J. Faukanye, E. Kubryakova, V. Karasik, Sh. Safarov va A. Nurmonov kabi olimlarning ilmiy ishlari tashkil etadi.

Kognitiv lingvistikaning asosiy metodlari sifatida konseptual tahlil, semantik maydon tahlili, metafora va ramzlar tahlili hamda taqqoslama-tipologik usullardan foydalaniladi. Ushbu metodlar til birliklari orqali inson tafakkuridagi konseptual tuzilmalarning qanday shakllanishini ochib berishga imkon yaratadi. Konseptual tahlil inson tafakkuridagi konseptlarning til qurilishlarida qanday aks etishini o'rganishga qaratilgan bo'lib, masalan, bug'doy tushunchasi o'zbek tilida non, baraka, rizq, nonning ushog'i kabi iboralar orqali ifodalanadi va bu tahlil konseptning lug'aviy, madaniy hamda ramziy qatlamlarini ochib beradi. Semantik maydon tahlili ma'nosi jihatidan bir-biriga yaqin bo'lgan, bir soha yoki bir mavzu doirasidagi so'zlarning umumiy tizimini o'rganishni nazarda tutadi, jumladan, "chiroyli" so'zining semantik maydoniga go'zal, suluv, husnli, husndor, xushro'y, ko'hli, zebo, sohibjamol kabi so'z va tushunchalar kiradi hamda bu usul so'zlarning ma'no tizimini aniqlashga xizmat qiladi.

Metafora va ramzlar tahlili tilimizda qo'llaniladigan metafora va ramzlar orqali inson dunyoqarashini o'rganishga yo'naltirilgan bo'lib, masalan, "Hayot – yo'l" metaforasi umr yo'li, hayot yo'li, yo'ldan adashmoq kabi ifodalarda, "Bilim – nur" metaforasi esa ilm nuri, ziyo maskani kabi birliklarda namoyon bo'ladi, ramziy ma'nolarda esa oq rang – poklik, qizil rang – insonning jo'shqin qoni, qush – erkinlik, non – rizq tushunchalarini ifodalaydi. Taqqoslama-tipologik tahlil esa biror til hodisasini boshqa til yoki madaniyat bilan qiyoslash orqali o'rganishga asoslanadi, masalan, ingliz tilida "bread" so'zi faqat nonni anglatib, o'zbek tilidagi kabi "rizq" yoki "hayot" ma'nolarini ifodalamaydi va ushbu usul konseptlarning umuminsoniy hamda milliy xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Umuman olganda, konseptual tahlil tushunchaning mohiyatini ochishga, semantik maydon tahlili so'zlarning ma'no tizimini ko'rsatishga, metafora va ramzlar tahlili obrazli ifoda orqali ma'noni aniqlashga, taqqoslama-tipologik tahlil esa boshqa tillar va madaniyatlar bilan solishtirishga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kognitiv lingvistika tilni shunchaki belgi tizimi emas, balki inson tafakkurini aks ettiruvchi vosita deb talqin qiladi. Bu yondashuvga ko'ra, til orqali insonning dunyoqarashi, hissiyoti, tajribasi hamda madaniy va ma'naviy qadriyatlarini ifodalanadi. Kognitiv lingvistika quyidagi asosiy bosqichlarga tayanadi: til idrokka bog'liq bo'lib, har bir so'z va ibora inson tafakkuridagi konseptual maydonni ifodalaydi; metafora va metonimiya asosiy rol o'ynaydi, ya'ni til birlamchi ma'nodan tashqari keng ma'no qatlamlarini yaratadi. Masalan: quloq – qozonning qulog'i, bosh – ishning boshi, bel – ishning beli va h.k. Bunda inson a'zolarining o'z asosiy ma'nosidan tashqari boshqa narsa va hodisalarga ko'chishi yoki bir so'zning bir nechta ma'nolarda qo'llanishi nazarda tutiladi. Metonimiya esa ikki tushuncha o'rtasidagi yaqinlikka asoslangan, o'xshashliksiz ko'chim bo'lib, unda biror narsa yoki voqea-hodisaning nomi boshqasiga ko'chiriladi, biroq bu nomlash narsalar o'rtasidagi o'xshashlikka emas, balki ularning o'zaro yaqinligi va aloqadorligiga asoslanadi.

Tuzilmaviy birliklar ham idrok bilan bog'liq bo'lib, jumla va iboralar konseptual tuzilishga xizmat qiladi. Konsept tushunchasi va uning mazmuniga to'xtaladigan bo'lsak, konsept – ma'lum bir obyekt, hodisa yoki tushunchaning umumlantirilgan ruhiy tasviri, ya'ni ongda shakllangan ma'naviy birlik bo'lib, u oddiy va ilmiy tushunchalar hamda tilshunoslikdagi semantik elementlarni o'z ichiga oladi. Konseptning mazmuni uning strukturasi bilan belgilanadi, ya'ni turli ma'no qatlamlari, ularning o'zaro aloqalari va xususiyatlari yig'indisini tashkil etadi. "Konseptning mazmuni va strukturasi" deyilganda, u faqat bitta asosiy ma'noni emas, balki unga bog'liq bo'lgan turli ma'no qatlamlarini ham qamrab olishi tushuniladi. Masalan, ona konsepti tarkibida bevosita ma'no – ona, qo'shimcha ma'nolar – g'amxo'rlik va bag'rikenglik, xalq ongida o'rnatilgan qadriyatlar – Ona yurti, ona tili va ularni qadrlash, ramziy ma'no hamda insonning individual assotsiatsiyalari, ya'ni har bir shaxsning o'z onasi bilan bog'liq xotira va hissiyotlari mujassam bo'lishi mumkin. Demak, konseptning strukturasi ma'nolar majmuasi va ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikdan iboratdir. Bitta so'z oddiy darajada lug'aviy ma'noni ifodalasada, konsept darajasida u butun bir ma'no olamini o'zida jamlaydi.



Konsept tilshunoslik va psixologiyada markaziy tushuncha bo'lib, u til va tafakkur o'rtasidagi uzviy bog'lanishni ifodalaydi. Konsept so'zning lug'aviy ma'nosidan kengroq bo'lib, milliy mentalitet, tarixiy xotira va madaniy qadriyatlarni o'zida mujassamlashtiradi. Konseptologiya esa konseptlarni tizimli ravishda tadqiq etib, ularning lingvistik va madaniy o'ziga xos jihatlarini yoritadi hamda konseptlar orqali milliy ong, tafakkur, urf-odat va qadriyatlarning tilda ifodalanish xususiyatlarini o'rganadi. O'zbek tilida konseptlarni o'rganishning dolzarbligi milliy qadriyatlarni saqlash, til va madaniyatni uyg'unlashtirish, lingvokognitiv tadqiqotlar asosida milliy tafakkur xaritasini yaratish hamda frazeologiya va badiiy adabiyot misolida konseptlarning qo'llanish xususiyatlarini aniqlash bilan belgilanadi.

XULOSA

Kognitiv lingvistika va konseptologiya masalalari o'zbek tilshunosligi uchun yangi va istiqbolli yo'nalish hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'zbek tilidagi konseptlar milliy madaniyat va tafakkur bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularni o'rganishda lingvokognitiv yondashuv konseptlarni tizimli va chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Frazeologik birliklar, maqollar hamda badiiy matnlar konseptlarning amaliy qo'llanishini va ularning lingvokognitiv xususiyatlarini ochib berishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqot natijalari milliy madaniy merosni ilmiy asosda anglash, saqlash va uni amaliy hamda ilmiy faoliyatda samarali qo'llash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Nurmonov A. Tilshunoslik nazariyasi masalalari. – Toshkent, 2002.
2. Yo'ldoshev B. Til va tafakkur munosabati. – Toshkent, 2010.
3. Safarov Sh. Kognitiv lingvistika. – Toshkent, 2006.
4. Shodiyeva Sh. Basic Concepts of Cognitive Linguistics. Current Research Journal of Pedagogics, 2021-yil, 5-son.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №1(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.